

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi

№ BD – 5111200-3.04
2018 yil "26" 05

2018 yil "26" 05

TIL TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishlari: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2018 yil "14" 06 531 - sonli buyrug'ining 10-ilovasi bilan
fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naltirish bo'yicha
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashining 2018 yil

"26" 05 2 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab
chiqildi.

Tuzuvchi:

Z. Xolmanova

-Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi professori, f.f.d.

Taqrizchilar:

N. Eganberdiyeva

-ToshDO-TAU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash tammoq markazi direktori, pedagogika fanlari
doktori, professor

B. Mengliyev

-Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018
yil "25" 04 2 -sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Respublika Prezidenti I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch"
asari, 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universitetini tashkil qilish to'g'risida"gi farmoni (PF - 4947) hamda
Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda
talabalarda til ta'limidagi innovatsiyaning predmeti, vazifalarini yoritish, fan
doirasida o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy masalalarning mazmuni-mundarijasini
belgilash, fanga oid terminologik apparatni tushuntirish bo'yicha ma'ruzalar o'qish
o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ushbu dasturda "Til ta'limida innovatsion yondashuv" bo'yicha olib
boriladigan dars mazmuni, uni o'qitishning turli zamonaviy metod va usullardan
foydalanish tavsiya etiladi.

II. Faning maqsadi va vazifalari

"Til ta'limida innovatsion yondashuv" fanini o'qitishdan maqsad -
talabalarda til ta'limidagi innovatsiyalar haqida tushuncha hosil qilish, o'qitishning
eng qulay, zamonaviy metod va usullardan ta'limning turli bosqichlarida
foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni innovatsiya, novatsiya
haqidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga innovatsion yondashuv mohiyati, o'zbek tilini
o'qitishning innovatsion texnologiyalari yutuqlari, amalda matnini tahlil qilish,
tushunish, anglash, unga baho berishning zamonaviy tizimlari, innovatsion
yondashuvning ilmiy-nazariy asoslarini; o'zbek tiliga oid darslarni hamda sinfdan
tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini o'rganish;
tildan amaliy foydalanish darajasini takomillashtirish, og'zaki va yozma nutq
malakalarini rivojlantirib borish yo'llari haqida ma'lumot berish, talabalarda
dastlabki kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni
shakllantirish, o'zbek tili darslarining tarbiyaviy ta'sirini oshirish, matnini
lingvistik va badiiy tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, o'zbek tili
o'qitishning innovatsion tizimiga xos xususiyatlarni anglay olish, amalda qo'llash,
zarur bo'lgan ko'rgazmali, texnik vosita (jadval, xarita, rasn, diktatfon)lardan
foydalanish, o'zbek tili o'qitish metodlari yordamida innovatsion o'quv jarayonini
tashkil etish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol
toptirishga yo'naltirishdan iborat.

"Til ta'limida innovatsion yondashuv" fanini o'zlashtirish jarayonida amalg'a
oshtiriladigan masalalar doirasida talaba:

- mazkur o'quv predmetining nazariy asoslari; til ta'limida innovatsion
yondashuv mohiyati, innovatsiya va novatsiya tushunchalarining o'zaro
munosabati, innovatsiya turlari, o'qitishning barcha usullaridan uninni
foydalanish, og'zaki va yozma nutqni takomillashtirib borish, yangi ta'lim
mazmunini innovatsion texnologiyalar orqali yoritish, o'quvchini mustaqil

fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish, til ta'limidagi innovatsion yondashuv mazmuni va vositalari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim;

- o'zbek tili o'qitishning innovatsion mazmuni va texnologiyalari bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ta'limining mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi; ta'lim vositalariga qarab usullar tanlay olishi; ona tili darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olish ko'nikma va malakalarini egallashi zarur;

- talaba ta'limning turli bosqichlarida tilshunoslik nazariyasi va til ta'limi masalarini innovatsiyon yondashuv asosida izohlash, mazkur fan masalalari asosida namunalı dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabi darajasidagi darslarni innovatsion texnologiyalar vositasida ashki qila olish, tilidan amaliy foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Til ta'limida innovatsion yondashuv va uning mohiyati. Innovatsiya va taraqqiyot. Innovatsiyaning soha taraqqiyligidagi o'rni. Innovatsiya va novatsiya tushunchalari. Novatsiya – qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmagan, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan faoliyat. Innovatsiya –ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan, natijasi tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib keladigan faoliyat. Novatsiyaning amaldagi nazariya doirasida yuzaga chiqishi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanishi, metodlarining yangilanishi, natijasi avvalgi tizimni takomillashtirishi. Innovatsiyaning tizimli va davomli bo'lishi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalashi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilashi. Innovatsiyada faoliyatning yangi sifat yo'nalishlari ochilishi, yangi texnologiyalar yaratilishi, faoliyatning yangi natijalariga erishilishi, natijada amaliyotning ham yangilanishi. Hozirgi vaqtda innovatsiya tushunchasining keng qo'llanayotganligi. Innovatsiyaning "yangilik kiritish", "yangicha yondashish" ekanligi, "tizim ichki tuzilishini o'zgartirish" deb ta'riflanishi. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'natirilgan ijtimoiy subyektlarning harakati tizimi sifatida. Innovatsiyalar – dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Innovatsiyaning ta'lim mazmunini rivojlantirishda ishtirokga ega ekanligi, ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi.

2-mavzu. Innovatsiyaning yuzaga kelishi

Innovatsiyaning tashabbuslar va yangiliklar asosida yuzaga kelishi. Innovatsiyalarning shakllanishi, ixtilo va kashfiyotlar. Insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyotlar. Eskiilik va yangilik o'rtasidagi kurash. Innovatsiyalarning bir necha muammo kesishgan vaziyatlarda vujudga kelishi, yangi masalalarni hal qilishi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishiga olib kelishi. Innovatsion yondashuvning jamiyat rivojidagi o'rni va ahamiyati.

3-mavzu. Innovatsiya ko'rinishlari

Innovatsiya turlari: faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayondagi, boshqaruv tizimidagi innovatsiyalar; kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: lokal, modulli, tizimli innovatsiyalar;

kelib chiqish manbaiga ko'ra: ichki yoki tashqi innovatsiyalar. Yangilikning joriy qilinishi: 1) texnik-texnologik novatsiya; 2) mahsuliy novatsiya; 3) ijtimoiy novatsiya. Iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, xususiy-ijtimoiy, huquqiy innovatsiyalar.

4-mavzu. Innovatsiyon texnologiyalar

Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi, ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammorni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, misban muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo'lgan so'nggi natija. Yangilik – alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya. Yangilikning undan birinchi mara foydalanilgan paytda yuzaga chiqishi.

5-mavzu. Innovatsion ta'limda elektron vositalarning o'rni

Kompyuter vositasida o'qitish texnologiyasi. Kompyuter vositasida o'qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzalliklari. Elektron darsliklar yaratish yaratilishi. Kompyuter lingvistikasi imkoniyatlari. Til ta'limida modelashtrishdan foydalanish. Til o'qitish dasturlari.

6-mavzu. Innovatsion jarayon va innovatsion faoliyat

Innovatsiyaning amaliyotga joriy qilinishi. Innovatsion jarayon – innovatsiyanı yuzaga chiqaruvchi omil sifatida. Innovatsion jarayon – innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish tizimi. Innovatsion jarayon – pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hantamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimidagi innovatsiya bevosita o'quvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi.

Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash, boshli. Innovatsion faoliyatning davriy shakllanishi va takomillashib egallashga intilish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; tajriba-sinov ishlarni rejalashtirish va amalga oshira olish; o'zidan boshqa tadqiqotchi – pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; hantkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko'rsata

olish, ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish, yangiliklarni izlash va ularni sharoitga moslashtirish. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklarning, innovatsiyalarning, tomon ma'noda, ta'lim jarayoniga kirib kelishi. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritishning to'rt bosqichida amalga oshirish: 1. Muammoli tahlil asosida aniqlash. 2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash. 3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish. 4. O'zgarishlarni amalga oshirish. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotdagi me'yorlarning yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan jarayon sifatida.

7-mavzu. O'zbek tilining nazariy masalalari talqinida yangicha yondashuvlar

O'zbek tilining mustaqillik davridan keyingi taraqqiyoti. Davlat tilining ijtimoiy soha ko'rinishlaridagi rivoji. Tilshunoslikdagi qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur, antroposentrik paradigmalar. Tilshunoslik hodisalariga oid sinergetik yondashuv.

8-mavzu. O'zbek tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv

Lingvistik kompetensiya. Lingvistik kompetensiya talablari. Lingvistik kompetensiya asosidagi fonetika oid bilimlarga qo'yiladigan talablar. Lingvistik kompetensiya asosidagi leksikologiyaga oid bilimlarga qo'yiladigan talablar. Lingvistik kompetensiya asosidagi grammatikaga oid bilimlarga qo'yiladigan talablar.

9-mavzu. Nutqiy kompetensiya

Nutqiy kompetensiya talablari. Og'zaki nutq kompetensiyasi. Og'zaki nutqni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiya. Yozma nutq kompetensiyasi. Og'zaki nutqni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiya.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

"Til ta'limida innovatsion yondashuv" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalar innovatsion yondashuvning mohiyati, novatsiya va innovatsiya tushunchalari, innovatsion texnologiya bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qilishga yo'naltiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Innovatsiya – konseptual yondashuv asosidagi faoliyat.
2. Innovatsiyalarning shakllanishi.
3. Innovatsiya ko'rinishlari.
4. Ta'lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar.
5. Innovatsion ta'limda elektron vositalarning o'rni.

6. Kompyuter vositasida o'qish texnologiyasi.
7. Innovatsion jarayon va innovatsion faoliyatni tashkil etish.
8. Fonetikaga oid bilimlarni o'zlashtirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar.
9. Leksikologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar.
10. Grammatikaga oid bilimlarni o'zlashtirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar.
11. O'quv jarayoni mazmunidagi innovatsiyalar.
12. Nazariy masalalar talqinida innovatsion yondashuv.
13. Og'zaki va yozma nutqni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiya.
14. Yangi pedagogik texnologiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'quvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va egallagan ko'nikmalarni ma'noda ushlab, taqdimot qilish asosida mustahkamlaydilar. Bunga jamoa tarzida, individual hamda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beriladi. Mustaqil ishlashda darslik, o'quv qo'llanmalari, internet ma'lumotlari, elektron darsliklar, uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallarning ahamiyati kattadir.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Til ta'limida innovatsion yondashuv" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va til ta'limi jarayonida innovatsion yondashuv, innovatsion texnologiyalar borasida ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, fan o'quvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib, internet saytlari, masofaviy ta'lim tizimidan foydalanib, referatlar yozadilar, ilmiy ma'ruza qiladilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Mustaqil ishini tayyorlashda innovatsion yondashuvning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- * amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- * o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'zlashtirish;
- * tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalarni mazmunini o'zlashtirish;
- * kompyuter texnologiyalari tizimlari asosida ishlash;
- * maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va taqdimotlar tayyorlash;
- * o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;

* interaktiv va muammoli o'qitish jarayonida faol qatnashish;

- Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
- 1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
- 2. Innovatsion g'oyalar va loyihalar.

3. Innovatsiya va uning til taraqqiyotidagi o'rn.
 4. Innovatsiya turlari.
 5. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra innovatsiya turlari.
 6. Pedagogik jihatdagi, boshqartuvdagi innovatsiyalar.
 7. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra innovatsiya turlari.
 8. Lokal innovatsiyalar.
 9. Modall innovatsiyalar.
 10. Tizimli innovatsiyalar.
 11. Tishimlilik nazariyasiga oid yangicha yondashuvlar.
 12. O'zbek tilini o'rganishga doir innovatsion yondashuvlar.
 13. O'zbek tili taraqqiyotidagi yangi yo'nalishlar.
 14. Innovatsion texnologiyalar.
- Izoh:** Mazkur to'xtatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim ushul ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Ильин Г. Инновации в образовании.-М.: Прометей, 2015.
2. Инновационные педагогические технологии. Проектные обучение, 2012.
3. Ишмухамедов Р. Инновационные технологии в образовании. Ташкент: Издательство «Халқ», 2005.
4. Ишмухамедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Ташкент: Инновационные технологии.-Ташкент, 2008.
5. Коммунальному образованию Давлат та'лим стандарти ва о'quv dasturi: Она тили, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). -Toshkent, 2016.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir tabiiy faoliyatining kundaalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: "O'zbekiston" NMLU, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi RF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qatoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 21-avgust.
9. Abdulloeva K. Yangi pedagogik texnologiyalar. "Bo'shanligi talim". -№4.-Toshkent, 1999.
10. Alimova G., Arifova Z. Innovatsiya. "Biznes-ekspress". 2012 yil 15 fevral.
11. Bushuy A.M., Saifov Sh. Til kurilishi: taxlit metodlari va metodologiyasi.-T.: Fan, 2007

12. Zafvezinskii V.I. Innovatsionnye protsessy v obrazovanii i pedagogicheskaya nauka. -Tomsk, 1990
13. Matviy N.V. Innovatsionnye pedagogicheskie tekhnologii. Proektное obucheniye.-2-izdaniye.
14. Mirziyoyeva M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.-Toshkent: Fan, 2006.
15. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб. пос. пед. ред. Е.Полат. -М.: Издательский центр "Академия", 2005.
16. Nigmatov A. Lingvistik tahlil metodologiyasi va metodlari.-Toshkent: Akademiasht, 2010.
17. Slaytlini V.A., Keldyova D.S. Pedagogika. Innovatsionnaya deyatelnost'-M., 1997.
18. Sayidilxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Molliya, 2003.
19. Suddon J.A. The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. London: Penguin Books, 1991.
20. Tolimov Y., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiikii asoslari. -Toshkent: 2006. -163 b
21. G'ulomov A., Qodirov M. Она tili o'qitish metodikasi.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.

Интернет ресурслари (сайтлари)

22. <http://bitcoin.org> > innovation
23. <http://ru.m.wikipedia.org/wiki/ин>
24. www.literature.uz
25. www.genhis.philol.ru
26. www.library.ziyoue.uz
27. www.lingvo-online.ru
28. www.globaltepmnology.com
29. www.basiscomputeretmnnology.com
30. www.oxfordhandbooks.com
31. www.idru.uz
32. www.pedagog.uz
33. www.edu.uz
34. tdru-internet.ru
35. www.bbc.com/russian/learning_english
36. <http://www.native-english.ru/articles/study-abroad>

